

**Ob'ektlarni foydalanishga tayyor holda qurishga doir  
pudrat shartnomasi**

Bulung'ur tuman

№81532

21.11.2022 yil

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan Bulung'ur tuman obodon lashtirish boshqarmasi nomidan Ustav asosida ish ko'ruvchi A.S.Mamarasulov bir tomondan va keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan CHP "NIZOMIDDIN QURUVCHI" nomidan Ustav asosida ish ko'ruvchi N.Sheranov ikkinchi tomondan **Oqtepa maxallaasi ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash va asfalt qoplamasiga aylantirish** ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

**1.SHARTNOMANING PREDMETI**

1. Xizmat ko'rsatuvchi o'ziga tegishli bo'lgan tovar (mahsulot) ni ushbu spetsifikatsiyaga asosan Buyurtmachiga o'z vaqtida sifatli qilib yetkazib berish, Buyurtmachi esa tovar (mahsulot)ni qabul qilish va ushbu Shartnomada belgilangan muddatlarda to'lash majburiyatini oladi.

№	Xizmatlar nomi	O'lchov birligi	soni	Narxi	Summasi
1	<b>Oqtepa maxallaasi ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash va asfalt qoplamasiga aylantirish</b>	xizmat	1	881 500 000	881 500 000
<b>JAMI:</b>					<b>881 500 000</b>

2.Shartnomaning umumiy summasi **881 500 000 ( Sakkiz yuz sakson bir million besh yuz ming)** so'mni tashkil qiladi.

**2.XIZMAT KO'RSATISH VA HISOB-KITOBLAR SHARTLARI**

3.“Buyurtmachi” mazkur shartnomani Bulung'ur tumani bo'yicha G'aznachilik bo'linmasida ro'yxatga olingan kundan boshlab 15 bank ish kuni ichida qonunchilikka muvofiq, shartnoma umumiy summasidan 30% miqdorida (shartnoma summasidan 30% miqdorida) oldindan to'lash majburiyatini oladi, qolgan 70% ni tovarni olgandan so'ng 20 bank ish kuni ichida qabul qilish-topshirish dalolatnomasi, hisob-faktura va v.b. asosida to'laydi.

4.“ Xizmat ko'rsatuvchi” avans mablag'lari Xizmat ko'rsatuvchining tegishli hisobvarag'iga kelib tushgan vaqtdan boshlab 20 bank ish kuni ichida tovarni yetkazib berish majburiyatini oladi.

5“Xizmat ko'rsatuvchi” amaldagi GOST ga muvofiq tovarni yetkazib berishi shart.

6.“Buyurtmachi” tovarlarni qabul qilishda “Xizmat ko'rsatuvchi” ishtirokida olinayotgan tovarlarning to'liqligini va sifatini shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan tovarlarga muvofiqligini tekshirishi shart.

7.Agar mazkur shartnoma bilan boshqa hollar ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni tashish va tushirish bo'yicha barcha xarajatlar Xizmat ko'rsatuvchi xisobidan amalga oshiriladi.

8..Buyurtmachining roziligiga ko'ra tovar muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin.

9.Yetkazib berilgan tovar bevosita Buyurtmachining mas'ul hodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi va unda yetkazib berilgan tovarlarning miqdori, uning sifati ko'rsatiladi.

10.Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan tovarlarni yetkazib berish, mazkur shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

### 3. Tariflar

11. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi:

ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarning sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruksiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruksiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarning yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi.

Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruksiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

### 4. Shartnoma mavzusi

12. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga **Oqtepa maxallaasi ichki ko'chalarini joriy ta'mirlash va asfalt qoplamasiga aylantirish** loyihada ko'zda tutilgan ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurish bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

### 5. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

13. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori ( 14.11.2022dagi 181532-son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z ichiga olgan holda joriy narxlarda **881 500 000 ( Sakkiz yuz sakson bir million besh yuz ming)** ni tashkil etadi.

14. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

qurilish qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo'lganda;

ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

ob'ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o'zgartirilganda.

15. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo'lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

16. Tegishli asoslar mavjud bo'lganda, sanab o'tilgan o'zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi shartnomaga qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

### 6. Pudratchining majburiyatlari

17. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo'limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun:

Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to'g'risida xabardor qilish;

qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o'tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo'yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta'minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o'rnatish;

qurilish tavakkalchiliklarini sug'urta qilish;

mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektni foydalanishga qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o'ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo'shatish;

qurilish maydoni qo'riqlanishini ta'minlash;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

18. Pudratchi mazkur shartnoma bo'yicha barcha ishlarning o'z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob'ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to'liq mulkiy javob beradi.

#### **7. Buyurtmachining majburiyatlari**

19. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga 1-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo'lgan qurilish maydonini ob'ekt qurilishi va qurilish tugallanguncha bo'lgan davrda dalolatnoma bo'yicha Pudratchiga berish;

ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funksiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta'minlash;

Pudratchining barcha murojaatlarini o'n kun muddatda ko'rib chiqish va qaror qabul qilish;

moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish;

mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan ijro hujjatlari ro'yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

#### **8. Ishlarni bajarish muddatlari**

20. Shartnoma:

milliy valyuta «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda – tomonlar uni imzolagan paytdan boshlab; keyinchalik EAVga konvertatsiya qilgan holda milliy valyutada «so'mda» o'zaro hisob-kitob qilinganda – shartnoma qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin kuchga kiradi.

21. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

22. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 2 kuni tashkil etadi.

23. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

#### **9. To'lovlar va hisob-kitoblar**

24. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 30 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 5 foizdan) bo'lgan holda avans o'tkazadi,

25. Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga avans berish va joriy moliyalashtirish uchun moliyalashtirish va ishlarni bajarish jadvallari asos hisoblanadi (–ilova).

26. Ob'ektning shartnomaviy joriy qiymatining qolgan 70 foizi uchun Buyurtmachi va Pudratchi o'rtasidagi uzil-kesil hisob-kitob qurilish tugallangandan keyin va ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda qabul qilingandan keyin ikki bosqichda;

27. ob'ekt qabul komissiyasi tomonidan qabul qilingan kundan boshlab 40 oy mobaynida - ishlar qiymatining kamida 80 foizi miqdorida;

mazkur shartnomada belgilangan kafolatli muddat tamom bo'lgandan

keyin-ishlar qiymatining 5 foizigacha miqdorida, biroq moliya yili tugamasdan amalga oshiriladi.

28. Pudratchi ob'ekt foydalanishga topshirilgunga qadar mazkur shartnoma bo'yicha ob'ektga mulk huquqini o'zida saqlab qoladi. Ob'ekt Buyurtmachiga topshirilgunga qadar ob'ektning tasodifiy yo'q qilinishi va shikastlanishi xavfi Pudratchining zimmasida bo'ladi.

29. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga qabul qilgan majburiyatlarni shartnoma kuchga kirgan kundan boshlab o'ttiz kun mobaynida bajarmagan taqdirda, Pudratchi bu haqda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Buyurtmachini yozma ravishda xabardor qilgan holda, shartnomaga o'zgartirishlar kiritish yoki shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish

huquqiga egadir. Bunda Buyurtmachi Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to'lashdan ozod qilinmaydi.

## **10. Ishlarni bajarish**

30. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

31. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'liqsiz tanishish huquqiga egadir.

32. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

33. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

34. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

35. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

36. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

37. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

38. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

39. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvalarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

40. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

41. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo'lishini kafolatlaydi.

42. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

43. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvi dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

44. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

45. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining rozilgisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

46. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

47. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

48. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar,

asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftarida o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

### **11. Ishlarni qo'riqlash**

49. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallangungacha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

50. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

### **12. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari**

51. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

52. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

53. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

### **13. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish**

54. Qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

55. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

56. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda

ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudarachi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

57. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

#### **14. Kafolatlar**

58. Pudarachi:

barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini; loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini;

ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarning foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

59. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomoning kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

60. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudarachi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudarachi va Buyurtmachining ikki tomonlama dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudarachi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudarachidan ushlab qolish huquqiga ega.

61. Pudarachi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davarxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

#### **15. Shartnomani bekor qilish**

62. Buyurtmachi:

shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudarachi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudarachining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudarachi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudarachi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

63. Pudarachi:

ishlarning bajarilishi Pudarachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

64. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudarachining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudarachiga to'laydi.

65. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

66. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

67. Shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

#### **16. Tomonlarning mulkiy javobgarligi**

68. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon:

ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

69. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0.4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

70. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

71. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

72. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

73. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

74. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

#### **17. Nizolarni hal etish tartibi**

75. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

76. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

77. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmaching yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

78. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

79. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

80. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

81. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

82. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

### **18.KORUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR**

83. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

84. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

85. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga vada qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdaagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorat ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

86. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

87. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o'tkazilmasligini kafolatlaydilar.

88. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 8.4 va 8.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo'l qo'yilganligi ma'lum bo'lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdin oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

### **19.BOSHQA SHARTLAR**

89. Ushbu shartnomada tomonlarning ko'zda tutilmagan o'zaro munosabatlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan tartibga solinadi.

### **20.Shartnoma amal qilish muddati**

90. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasida majburiy ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022 y "21" noyabr 2022 y "31" dekabrgacha amal qiladi.

91. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab, barcha o'zaro hisob-kitoblarni tugaganligi



muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmlariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.  
92.SHartnomaning amal qilish muddatini tugashi tomonlarni javobgarlikdan ozod qilmaydi.

## 21 YURIDIK MANZILLAR REKVIZITLARI:

### PUDRATCHI

Nomi: CHP "NIZOMIDDIN QURUVCHI"

Manzili: Samarqand viloyati Bulung'ur tuman  
Olmazor MFY

Bank nomi: Agro bank  
Bulung'ur filali

X/R: 20208000700203392001

MFO: 00290

STIR: 302548430

Raxbar:  N. Sheranov

M.O': (imzo)

### BUYURTMACHI

Nomi: Bulung'ur tuman Obodonlashtirish  
boshqarmasi

Manzili: Samarqand viloyati Bulung'ur  
tumani Oqtepa ko'chasi 143 u

Bank nomi: Markaziy bank Toshkent  
shahar XKMM


X/R: 401722860182067065200110011

MFO: 00014

STIR: 200730391

Raxbar:  A.S. Mamarasulov

M.O': (imzo)

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	AKBAR MAMARASULOV SAPAROVICH
	Imzolangan sana	22.11.2022 14:40
	Hujjat kodi	GG4872334668
	Hulosa kodi	UU3172577171

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

UU3172577171

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Qurilish pudrat shartnomasi**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Bulung'ur tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 22.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga ya'ni Fuqarolik kodeksining 600-621-moddalariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bulung'ur tuman  
yuridik markazi  
markaz rahbari:**



**N.A.ABDIYEV**

22.11.2022

**Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 181532 на приобретение Самарқанд вилояти Булунғур туман обонлаштириш бошқармаси Булунғур туман Оқтепа махаллааси ички кўчаларини жорий таъмирлаш ва асфалт қопламасига айлантириш**

Способ проведения электронный

Дата 14.11.2022

Время рассмотрения 14.11.2022 19:00

Закупочная комиссия Булунғур туман Ободонлаштириш бошқармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	MAMARASULOV AKBAR SAPAROVICH	Boshliq	1
<b>Секретарь комиссии</b>	HAYITMAHATOV ELBEK EGAMBERDI O'G'LI	ходим	Ободонлаштириш бошқармаси
<b>Член комиссии</b>	AZZAMKULOV JOXONGIR SAYDAXMATOVICH	Булим бошлиги	Булунғур туман Ободонлаштириш бошқармаси
<b>Член комиссии</b>	DUVLANOV ISLAMBEK SUVANKULOVICH	мухандис	Булунғур туман Ободонлаштириш бошқармаси
<b>Член комиссии</b>	ESHIMOVA NILUFAR ARTIKBOYEVNA	иктисодчи	Булунғур туман Ободонлаштириш бошқармаси
<b>Член комиссии</b>	NAMOZOV SHUXRAT MANSUROVICH	агроном	Булунғур туман Ободонлаштириш бошқармаси

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 14.11.2022 года № лота 181532.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог</b>
Подробное описание	Услуги по ремонту и содержанию автомобильных дорог
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	882 352 941.00
Стартовая сумма	882 352 941.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Танловда қатнашчиси объектнинг умумий суммаасидан 5% дан ортиқ тушириш мумкин эмас

Тип: Текстовое значение

Описание: Агарда иштирокчи объектнинг умумий суммаасидан 5% дан ортиқ туширса тендрдан четлаштирилади

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	2	2	2	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	2	2	2	Экспертная		
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	2	2	2	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	2	2	1	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	2	маълумотлар илова қилинди	1	Экспертная		

Критерий №2 Автомобил йўллари ва кўприкларни қуриш бўйича рейтинг (DD-AAA) гача бўлган тоифаларнинг ҳамда балл кўрсаткичлари

Тип: Текстовое значение

Описание: Иштирокчининг тоифасини тасдиқловчи ҳужжат ПДФ ёки JPEG шаклда тақдим этилади (тоифасига қараб бериладиган балл 0-20 гача)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	20	20	15	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	20	20	20	Экспертная		
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	20	20	20	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	20	илова қилинди	20	Экспертная		

Критерий №3 Объектны ўрганиш тўғрисида Маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Бюртмачи ташкилот мутахасис ходимлари билан биргаликда (Далолатнома. лойихани ўрганилганлик тўғрисида ва расмлар)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	20	20	15	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	20	20	20	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	20	20	20	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	20	20	20	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	20	илова қилинди	15	Экспертная		

Критерий №4 Корхона балансидаги махсус машина ва механизмлари рўйхати эғалигини тасдиқловчи хужжатлар билан

Тип: Текстовое значение

Описание: А)Махсус машина механизмлари (асфальтётқизгич, катоклар тоннаси бўйича, автогрейдер, фреза, экскаватор, автосамасвал ва водовоз) корхонани балансида бўлса (20 балл). Б)Махсус машина механизмлари бўлмаган ҳолда, ижара шартномаси нусхаси бўйича 2022 йил учун (5 балл).

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	25	25	15	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	25	25	25	Экспертная		
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	25	25	25	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	25	25	25	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	25	илова қилинди	20	Экспертная		

Критерий №5 Мутахассис ишчи ходимлар тўғрисида маълумот (корхона раҳбари, бош муҳандис, директор ўринбосари, ишлаб чиқариш техник бўлими ходимлари, ҳаракат хавфсизлигини таъминлаш бўлими ходимлари ва механик ходимлар)

Тип: Текстовое значение

Описание: Паспорт, диплом, меҳнат дафтарчаси, буйруқдан кўчирма (PDF) форматда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	5	5	3	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	5	5	5	Экспертная		
MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ	5	5	5	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	5	5	5	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	5	илова қилинди	5	Экспертная		

Критерий №6 Иштирокчиларнинг суд қарори ва бошқа органлар қарорига муофиқ мулкига қўйилган таъқиқлар йўқлиги тўғрисида маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: МИБдан маълумотнома тақдим қилинади

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH</b>	5	5	3	Экспертная		
<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ</b>	5	5	4	Экспертная		
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ</b>	5	илова қилинди	5	Экспертная		

Критерий №7 Молиявий натижалар тўғрисидаги 2-сонли бухгалтерия баланси

Тип: Текстовое значение

Описание: Сунги 3 йиллик молиявий натижаси тўғрисида (тасдиқланган ҳолда)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ</b>	5	маълумотлар илова қилинди	5	Экспертная		

Критерий №8 Сунги 3 йиллик айланма маблағлар тўғрисида банкдан маълумот.

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотлар тақдим этилади (Тижорат банкдан)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH</b>	5	5	3	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ</b>	5	маълумотлар илова қилинди	5	Экспертная		

Критерий №9 Давлат солиқ қўмитасидан қарздорлиги бўйича маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Маълумотлар тақдим этилади (охирги 10 кунлик

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH</b>	5	5	3	Экспертная		
<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	5	5	5	Экспертная		
<b>MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ</b>	5	маълумотлар илова қилинди	5	Экспертная		

Критерий №10 Танловдаги объектга ўхшаш объектларда бажарилган иш тажрибаси

Тип: Текстовое значение

Описание: А)Йўл қурилиш бўйича шартномалари (2021-2022 йил ҳолати бўйича ПДФ фарматда) тақдим этилади  
Б)Агарда иштирокчи бош пудратчи билан шартнома асосида бажарган (субчик) бўлса 5 балл берилади бунда бош пудратчи билан тузилган шартномани ПДФ фарматда тақдим қилиши шарт

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH</b>	15	15	8	Экспертная		
<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	15	15	15	Экспертная		
<b>MUSLUMBЕК STROY GROUP MCHJ</b>	15	15	15	Экспертная		
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	15	15	15	Экспертная		
<b>MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ</b>	15	маълумотлар илова қилинди	15	Экспертная		

Критерий №11 Танловда иштирок этадиган иштирокчиларнинг гувоҳномаси, лицензияси ва ОКЕД коди

Тип: Текстовое значение

Описание: Йўл қурилиш соҳасида (3 йилгача бўлса 5 балл, 5 йилдан юқори бўлса 10 балл)

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	10	10	9	Экспертная		
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	10	10	10	Экспертная		
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	10	10	10	Экспертная		
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	10	10	10	Экспертная		
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	10	маълумотлар илова қилинди	10	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	882 352 941.00	838 235 294.00 UZS	838 235 294.00	00.00	838 235 294.00	12.11.2022 18:16:58	10
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	882 352 941.00	881 800 000.00 UZS	881 800 000.00	00.00	881 800 000.00	13.11.2022 09:18:47	9.50596
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	882 352 941.00	838 235 294.00 UZS	838 235 294.00	00.00	838 235 294.00	14.11.2022 01:42:29	10
НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К	882 352 941.00	881 500 000.00 UZS	881 500 000.00	00.00	881 500 000.00	12.11.2022 20:43:05	9.50919
ООО SAM SHOXINUR QURILISH	882 352 941.00	881 700 000.00 UZS	881 700 000.00	00.00	881 700 000.00	13.11.2022 22:38:22	9.50704

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО SAMARQAND UZBEKGAZSUV QURILISH	62.3079	10	72.3079
MUSLUMBEK STROY GROUP MCHJ	89.2305	9.50596	98.73646
MUNISAXON BUNYODKOR MCHJ	81.5382	10	91.5382



<b>НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К</b>	90	9.50919	99.50919
<b>ООО SAM SHOXINUR QURILISH</b>	89.2305	9.50704	98.73754

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 181532 от 14.11.2022 года на приобретение Самарқанд вилояти Булунғур туман обонлаштириш бошқармаси Булунғур туман Оқтепа махаллааси ички кўчаларини жорий таъмирлаш ва асфалт қопламасига айлантириш определила победителем:

НИЗОМИДДИН КУРУВЧИ Х К  
302548430

и резервный исполнитель: ООО SAM SHOXINUR QURILISH (306686162)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	MAMARASULOV AKBAR SAPAROVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	AZZAMKULOV JOXONGIR SAYDAXMATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	ESHIMOVA NILUFAR ARTIKBOYEVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	NAMOZOV SHUXRAT MANSUROVICH	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП